

**2 2023**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


**ILMIY  
AXBOROTLARI  
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC BULLETIN**

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

**ILMIY-NAZARIY JURNAL**  
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL



АНИҚ ФАНЛАР  
ТАБИИЙ ФАНЛАР  
ФАЛСАФА  
ПЕДАГОГИКА  
ПСИХОЛОГИЯ  
ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР  
ФАНЛАР

**ISSN 2181-9580**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTLARI  
ILMIY-NAZARIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК  
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN  
OF THE TASHKENT  
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

**2023**

**2-son**

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil  
30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

# **TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

## **ILMIY AXBOROTLARI 2/2023**

### **ILMIY-NAZARIY JURNALI**

**Bosh muharrir:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Avazov Sherimmat

**Tahrir hay'ati:**

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori, professor  
Abdazimov Aziz Abdusabirovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Asqarov Axmadali – tarix fanlari doktori, akademik  
Azimov Inomjon Mamasodiqovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedova Nodira Muxtorjonovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Babakhodjayeva Lola Maratovna – tarix fanlari doktori, dotsent  
Djamilova Nargiza Nuriddinovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Ikramxonova Firuza Ikromovna – filologiya fanlari doktori, dotsent  
Isyanov Ravil Gennadiyevich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Isakulova Nilufar Janikulovna – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kamilova Nodira Gayratovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent  
Kahramonov Kursosh Jalgashovich – filologiya fanlari doktori, dotsent  
Mamarajabova Zulfiya Narbayevna – pedagogika fanlari doktori, professor  
Mamarajabov Mirsalim Elmurodovich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Masharipova Umida Abduvahobovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Mirkasimova Marguba Mirkabilovna – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muslimov Narzullo Alixanovich – pedagogika fanlari doktori, professor  
Nasirov Azimidan Normamatovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Nishanova Zamira Tasarayevna – psixologiya fanlari doktori, dotsent  
Normurodova Nigora Abdusattarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Nuriddinov Erkin Zuhridinov – tarix fanlari doktori, professor  
Nurullayev Muzaffar Eshnazarovich – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Orlova Tatyana Aliksiyeva – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Pulatova Durdona Ravshanovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Raxmankulova Nargiz Xadjiakbarovna – pedagogika fanlari doktori, professor  
Rashidova Umida Mansurovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Qahharova Matluba Mannofovna – falsafa fanlari doktori, professor  
Saidov Azamat Ismailovich – psixologiya fanlari doktori, dotsent  
Tursunmetov Komiljon – pedagogika fanlari doktori, professor  
Umarov Bahriiddin Mingboyevich – psixologiya fanlari doktori, dotsent  
Xalikov Azam Abdusalomovich – pedagogika fanlari doktori, professor  
Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, professor  
Xamrakulova Xurshida Kuvvatovna – filologiya fanlari doktori, dotsent  
Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich – biologiya fanlari doktori, dotsent  
Yakubjanova Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Yakubov Islamjon Axmedjanovich – filologiya fanlari doktori, professor  
Panjiyev Qurban niyoz Berdiyevich – san'atshunoslik fanlari doktori, dotsent

## MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| <b>Mamadaliyev A.</b> Formation of prosodic characteristics of foreign language speech in students of non-linguistic higher educational establishments               | 5   |
| <b>Qurbanova B.Q.</b> Oliy ta'lim talabalarining oliy o'quv yurti va jamoada moslashuv jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish mexanizmlari                | 13  |
| <b>Daminov M.A.</b> Molekulyar genetika fani kecha va bugun hamda galdagi vazifalar  | 19  |
| <b>Tashmetov T.X.</b> Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'mi   | 23  |
| <b>Tursunova M.I.</b> Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qitishning intensiv usullarni qo'llash  | 29  |
| <b>Марупова Д.Д.</b> Развитие литературоведческих компетенций студентов в процессе анализа произведений ивана бунина   | 39  |
| <b>Abdullayeva S.Ya.</b> Oliy harbiy ta'lim kursantlarining ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari  | 47  |
| <b>Tashmatova SH.R.</b> Kreativ fikrlash - shaxs ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma sifatida  | 54  |
| <b>Rahimboyeva D.Q.</b> 10-11-sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning ba'zi jihatlari  | 58  |
| <b>Сирожиддинова И.М.</b> Вопросы совершенствования методической системы профессиональной подготовки будущих инженеров   | 64  |
| <b>Xushbokov X.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirish shart-sharoitlari  | 71  |
| <b>Radjapov E.G.</b> XX asrning 30-yillarida o'zbekiston milliy harbiy mutaxassislar elitasining qatag'on etilishi tarixidan: Mamadali Aliyev taqdiri                | 76  |
| <b>Mirkasimova M.B.</b> Zamonaviy ta'limda "umummadaniy kompetentsiya" tushunchasi va unga erishish tamoyillari  | 83  |
| <b>Maxsudova O.</b> Bo'lajak o'qituvchilarining fonetik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari  | 87  |
| <b>Suleymanova R.D.</b> Bo'lajak o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy - nazariy asoslari   | 95  |
| <b>Mamadiyorov J.B.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni | 105 |
| <b>Boqiyev A.M.</b> Matematikadan dts talablari asosida o'quvchilar kompetentlik darajasini aniqlash   | 114 |
| <b>Махкамова Г. Т., Тожиева Г.Я.</b> Языково - культурная интуиция: сущность и значимость в языковом образовании   | 119 |
| <b>Salimova D.X., Ibodulloyeva M.I.</b> Tarkibida oltingugurt saqlovchi noorganik moddalarning sintezi va ularning amaliy qo'llanilishi                              | 127 |
| <b>Jumaniyozov Q.S.</b> Geometrik masalalar yechish metodikasi   | 135 |
| <b>Nazarov A.M.</b> Oliy ta'lim muassasasi talabalarida psixologik barqarorlikni ta'minlash nazariy va amaliy muammo sifatida  | 144 |
| <b>To'rayev S.R., Toshxo'jayeva N.R.</b> Umumta'lim muassasalarida islohotlar samaradorligining bosh om  | 150 |
| <b>Ermatova G.P.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida ijtimoiy intellekt shakllanishining psixologik xususiyatlari                                  | 157 |

2. Бочкина Н. П., Е. К. Гинтера, В. П. Гузырева. Наследственные болезни: национальное руководство + CD / Под ред. М., 2012. – 936 с. (Серия «Национальные руководства»).
3. Beheshti B., Park PC., Braude I., Squire J.A. Microarray CGH. Methods in Molecular Biology. V.204. Molecular Cytogenetics. Protocols and Applications /Ed. Yao-Shan Fan. London Health Sciences Center and the University of Western Ontario, London, Ontario, Canada. 2002. P. 191—207.
4. Voullaire L., Slater H., Williamson R., Wilton L. Chromosome analysis of blastomeres from human embryos by using comparative genomic hybridization // Hum.Genet. 2000. Vol. 106. P. 210-217
5. Perk J., Makedonski K , Lande L. et al. The imprinting mechanism of the PraderWilli/Angelman regional control center// EMBO J. 2002. Vol. 21. P. 5807—5814.
6. Peltonen L., McKusick V.A. Dissecting Human Disease in the Postgenomic Era // Genomics and Medicine. 2002. Vol. 2. P. 3—12
7. Simoni G. The role of imprinted genes in fetal growth // Biol. Neonate. 2002. Vol. 81. P. 217-228. Nicholls R.D., Knepper J.L. Genome organization, function, and imprinting in Prader-Willi and Angelman syndromes // Ann. Rev. Genomics Hum. Genet. 2001. Vol. 2. P. 153-175.

## **YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI**

**Tashmetov T.X. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Yoshlar ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq keng ko'lamli vazifalarni hal etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimi (mobil telefonlar, internet va boshqalar) asosiy o'rincini tutadi. O'zbekiston yoshlari ma'naviyatini shakllantirishning istiqbolli modellaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlab chiqiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar modeli hisoblanadi. Maqolada ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlarining buzg'unchi ta'siri ostida yoshlar ma'naviyati rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolar, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'sirining turli jihatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, yoshlar, o'zlikni anglash, madaniyat, ma'rifat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviyat, ijtimoiy muhit, fuqarolik, milliy an'analar, targ'ibot, ekstremizm, terrorizm, axborot, texnologiya, kompyuter, telekommunikatsiya, internet, elektron pochta, hujum, tahdid.

## РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Ташметов Т.Х. - доцент Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии по философским наукам (PhD)

**Аннотация.** Система информационно-коммуникационных технологий (мобильные телефоны, интернет и др.) играет ключевую роль в решении масштабных задач, связанных с формированием духовности молодежи. Одной из перспективных моделей формирования духовности молодежи Узбекистана является модель духовно-образовательной работы, разработанная на основе информационно-коммуникационных технологий. В статье рассматриваются проблемы, препятствующие развитию духовности молодежи в условиях деструктивного влияния моральных угроз и информационных атак, а также различные аспекты воздействия информационно-коммуникационных технологий на духовно-нравственную зрелость молодежи.

**Ключевые слова:** общество, молодёжь, самосознание, культура, образование, духовные и нравственные ценности, духовность, социальная среда, гражданственность, национальные традиции, пропаганда, экстремизм, терроризм, информация, технология, компьютер, телекоммуникация, интернет, электронная почта, атака, угроза..

### THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF YOUTH SPIRITUALITY

Tashmetov T.Kh. - associate professor of Chirchik state pedagogical university, doctor of philosophy on philosophical sciences (PhD)

**Annotation.** The system of information and communication technologies (mobile phones, the Internet, etc.) plays a key role in solving large-scale tasks related to the formation of youth spirituality. One of the promising models for the formation of the spirituality of the youth of Uzbekistan is the model of spiritual and educational work developed on the basis of information and communication technologies. The article examines the problems that hinder the development of youth spirituality under the destructive influence of moral threats and information attacks, as well as various aspects of the impact of information and communication technologies on the spiritual and moral maturity of young people.

**Key words:** society, youth, identity, culture, enlightenment, spiritual and moral values, spirituality, social environment, citizenship, national traditions, propaganda, extremism, terrorism, information, technology, computer, telecommunications, internet, email, attack, threat.

XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, yuksak texnologiyalar va internet zamoni, jahon maydoni va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asri sifatida tarixga kirmoqda. Axborot tizimlarining rivojlanishi uning xavfsizligini ta'minlashni ham kun tartibiga olib chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo'llanilishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi, albatta, o'z navbatida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni hayotning o'zi taqozo etmoqda"[1]. Bu esa o'z navbatida, taraqqiyotning ijobiy va salbiy jihatlari bilan bog'liq bo'ladigan jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Binobarin, XX asr oxiriga kelib, Yevropa ittifoqi komissiyasi tomonidan "Axborotlashgan jamiyat qurishning Yevropacha yo'li" (1994 y.), "Axborotlashgan jamiyat sari Finlyandiya yo'li" (1995 y.), "Germaniyaning axborotlashgan jamiyat sari rivojlanishi" (1996 y.) dasturlari ishlab chiqildi. 2000 yil 22 iyulda "Katta sakkizlik" uchrashuvi (Okinava)da "Global axborotlashgan jamiyat Hartiyasi" qabul qilinib, o'sha yili BMTning Mingyllik sammitida e'tirof etildi. So'ngra, axborotlashgan jamiyat muammolarini YUNESKO tomonidan nazariy jihatdan o'rganish boshlandi[2]. Darhaqiqat, axborot almashinuv jarayoni juda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakatimiz ham ana shunday murakkab axborot munosabatlari sharoitida o'z kelajagini barpo etmoqda. Axborot texnologiyalari hamma sohalarda jamiyat hayotining tobora zamonaviylashuvi va takomillashuviga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalari fundamental, ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng yangi yutuqlaridan unumli foydalangan holda barcha fanlarning muntazam rivojiga shart-sharoit yaratdi. Buning natijasida biotexnologiya va genmuhandisligi kabi yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Hozirgi davming mazmuni va mohiyati faylasuflar tomonidan intellektual bilim davri va "Bilim va tafakkurga asoslangan" jamiyat deb atalayotgani bejiz emas. Demak, axborotlashgan jamiyat, internet bugungi kunda cheksiz imkoniyatlarini namoyon qilmoqda. Busiz bugungi taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimini keng rivojlantirmsandan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas"[3]. Haqiqatan, axborotlashgan mamlakatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosida turli xil tizimlar tashkil etadi. Axborotlashgan jamiyatning ko'pchilik a'zolari axborot, ayniqsa, uning oliv shakli bo'lishi bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishslash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatdir. Axborotlashgan jamiyatga o'tishda kompyuter va telekommunikatsiya axborot texnologiyalari negizida yangi axborotni qayta ishslash

sanoati yuzaga keladi. Bizning jamiyatimizga ham mustaqillik tufayli axborot texnologiyalari kirib bormoqda. Bu masala Prezidentimiz va hukumatimizning diqqat markazida birinchi masalalar qatorida turibdi.

Ayni paytda, jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lган uch qismdan tarkib topadi: mediatizatsiya (lotincha "mediatus" - vositachi) - axborot toplash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni; kompyuterlashtirish - axborot qidirish va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni; intellektualizatsiya - axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayonidir[4]. Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni zamonaviy axborot-texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlarni takomillashtirish deb talqin qilish lozim.

Shu bilan bir qatorda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi natijasida sohada yangi – masofaviy o'qitish shakllanmoqda. Natijada, masofaviy o'qitishdagi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv internet taqdim etayotgan ajoyib imkoniyatlarga suyangan holda o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuni aytib o'tish zarurki, masofaviy ta'limni qo'llashning bir qator ustunlik va qulaylik tomonlari mavjud. Bular quyidagilar:

- ta'lim vaqtı ixtiyoriy, talaba-yoshlar o'ziga ma'qul bo'lган vaqtida o'quv jarayonida qatnashishi mumkin;
- mashg'ulotlarning auditoriyada o'tilishi shart emas;
- talaba-yoshlarda mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- talaba-yoshlar amaliy va sifatli bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- talaba-yoshlarning mustaqil fikrlesh va qaror qabul qilish qobiliyatları rivojlanadi;
- talaba-yoshlarda texnik qurilmalar: kompyuter, internet, elektron pochta kabi vositalardan foydalanish ko'nikmasi rivojlanadi;
- ta'lim harajati arzonlashadi: bu, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalardagi iqtidorli yoshlarning bilim olish imkoniyatini yanada oshiradi;
- ta'lim olish geografiyasi (ko'lami) yanada kengayadi.

Shunday qilib, masofaviy ta'lim jarayonida quyidagi o'quv malumotlaridan foydalanish mumkin: qo'llanma (umumi kurs), audio va video ma'lumotlar, elektron va multimedia qo'llanmalari, elektron plakatlar, onlayn kurslari.

Keyingi yillarda onlayn dars tizimi ham yo'lga qo'yilmoqda. "Zoom" dasturi orqali turli hududlardagi talabalar bilan virtual aloqa o'rnatish orqali dars mashg'ulotlari tashkil qilinmoqda. Bu yangi ta'lim tizimining vaqt, masofa, mablag' bilan bog'liq bir qancha o'ziga yarasha quayliklari mavjud. Ammo masofaviy ta'lim

jarayonida auditoriya va sinf xonalarida vujudga keladigan raqobat muhitini yaratish bir oz mushkul kechadi. Bu esa ta'lim sifatining bir oz bo'lsa-da, pasayishiga olib keladi. Ikkinchidan, talabalar va o'qituvchilar ongida elektron holatdagi ta'lim va muloqot jarayonlariga ishonchsizlik hissining mavjudligida ko'zga tashlanadi. Astasekinlik bilan bu tizim ham o'zining takomiliga erishadi.

Fikrimizcha, bugungi kun yoshlarining bir qator ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet orqali turli ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularni o'zlaricha tahlil qilishi, salbiy oqibatlarini esa chuqur anglab yetmasligi natijasida yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish bilan bog'liq holatlar kuzatilmoqda.

Shu ma'noda, texnik nuqtayi nazardan internet yo'ldoshli aloqa vositasida kompyuter bo'g'inlarining birlashishini anglatadi. Shu bois, u ko'pincha, jahon elektron pochtasi deb ataladi. 1993 yilning o'ttalarida internetga multimedia ulandi va bu foydalanuvchilarga tarmoq bo'ylab tasvir va ovoz yordamida "sayr" qilish imkonini berdi. Internet oddiy elektron axborot uzatish vositasidan kibernetik maydonga, kommunikatsiyalar, axborot va o'yinlar olamiga aylandi" [5]. Shundan kelib chiqib aytish lozimki, internet imkoniyatlari cheksizdir. Bu yerda har bir odam o'z didi va kayfiyatiga, saviyasi va darajasiga qarab o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni topishi mumkin. Global tarmoq hozir faqat axborot manbai emas, balki odamlar o'zaro aloqa qiladigan va hordiq chiqaradigan o'ziga xos muhit hamdir.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, "Elektron dunyo"dan turli siyosiy kuchlar o'zlarining terroristik, ekstremistik tashviqotlar va g'oyalari, o'z qarashlarini ommaga targ'ib qilish, har xil jinoiy to'dalar faoliyatlarini amalga oshirish yo'lida asosiy qurol sifatida foydalanishmoqda. Yirik salbiy kuchlarning internet tarmog'ida o'zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, internetda keng qamrovli axborotli terror – "elektron jihod" olib borayotgani, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar, muammolar paydo qilayotganlari dunyo mamlakatlari oldida axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birgalikda, axborotlashuv jarayonining rivojlanishi kompyuter jinoyatchiligi va kompyuter terrorizmi kabi yangi jinoyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Yangi va o'r ganilmagan jinoiy soha sifatida insoniyat uchun xavfli hisoblangan kiberterrorizm muammosini hal etish alohida e'tibor talab qiladi. Internet tarmog'idagi ochiq manbalar orqali biologik, kimyoviy, hattoki, yadro quollarini tayyorlash texnologiyalarini o'rgangan holda amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar e'tiborini tortmoqda. Saytlarni noqonuniy yo'llar bilan buzish orqali kiberterrorchilar turli maxfiy ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'imodqa.

Shunday qilib, kiberterrorizm axborot texnologiyalari ichki faoliyatiga noqonuniy aralashish, kompyuterda mavjud dasturlar yoki ma'lumotlarni maqsadli ravishda yo'q qilish, zarar keltirish, davlat organlarining muhim qismlari faoliyatini

izdan chiqarish bilan birga insonlar hayotiga xavf solish, moddiy zarar keltirish yoki ommaviy qo'rqitish, harbiy nizolar kabi turli zararli oqibatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar majmuidir. "Kiberterrorizmning shiddat bilan o'sib borishining yana bir sababi, u qurol-yarog' yordamida amalga oshiriladigan terrorchilik harakatidan arzonga tushadi, jangovar harakatlar, portlashlar, xunrezliklar bo'lmaydi. Buzg'unchi harakatlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda amalga oshiriladi" [6].

Hozirda internet tarmog'i o'zining tezkorligi, tejamkorligi va ochiqligi, nazoratning sustligi yoki umuman yo'qligi, dunyo bo'ylab tarqalgan foydalanuvchilarning mavjudligi, axborotlarning tez va arzon yo'l bilan to'liqligicha tarqatilishi, hamfikr guruhlarning tashkil etish mumkinligi, aloqalarning anonim ekani, asl manbani aniqlash imkonsizligi, strategik obyektlar, harbiy tashkilotlar kompyuterlariga noqonuniy ulanish imkonining mavjudligi, tarmoqlarning yashovchanligi bilan terrorchi tashkilotlarni o'ziga jalb qilayotir. Shu bilan birlgilikda, virtual muloqot esa hozirgi kunda, ayniqsa, yoshlarga zarar keltiruvchi manba bo'lib qolayotganligini alohida e'tirof etish mumkin. "Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinnmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin" [7].

Bu fikrning mohiyatiga nazar solsak, hozirgi davrda jozibador g'arb madaniyatining yoshlari ongiga osonlik bilan kirib kelishi ayon bo'lib bormoqda. Bunda, OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni katta, albatta. Ular, o'z navbatida, virtual voqelikni shakllantirib, undan foydalanuvchilarda madaniyatning yangi ko'rinishi – kibermadaniyatni qaror toptirmoqda. Virtual voqelik va kibermadaniyat kishilarning fe'l-atvorini osonlikcha dasturlashtirish imkoniyatini berayapti, ya'ni yoshlari ongi, ichki dunyosi va qalbini egallahning qulay vositasiga aylandi.

Xulosa o'mida aytish mumkinki, har qanday mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlariga qarshi kurashda multaram Prezidentimizning asarlari dasturulamal vazifasini bajarishi kerak. Jumladan, "Besh muhim tashabbus" va "Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi" buning yorqin misoli hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, global o'zgarishlar davrida, jamiyatda axborot tahdidlariga qarshi samarali kurashish omillaridan biri aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish bo'lsa, ikkinchisi – mamlakatda yangi texnologiyalarni egallah va uni barcha sohalarga keng joriy etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. Uchinchidan, turli xil ma'naviy tahdidlarning oldini olishda yoshlarda internetdan olinayotgan ma'lumotlarni ajrata bilish savodxonligini shakllantirish, ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib borish, axborot xurujlariga nisbatan zamonaviy ko'rinishdagi targ'ibot ishlarini olib borish,

ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kerak. Shundagina ma'naviy tahdidlar va axborot xuruji yoshlarni yo'ldan og'dira olmaydi.

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B. 46.
2. Состояние исследований по проблемам информационного общества. -СПб., ЮНЕСКО. 2004; Наука в информационном обществе. –М., ЮНЕСКО. 2004; Мониторинг информационного общества и обществ знаний. -СПб., ЮНЕСКО. 2004; Этика и права человека в информационном обществе. –М., ЮНЕСКО. 2007; Всемирный саммит по информационному обществу. –М., ЮНЕСКО. 2007.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Jild 1. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 86.
4. Musurmonqulov O., Musurmonqulova O. Globallashuv davrida axborot erkinligi niqobi ostidagi ma'naviy tahdidlarni yoshlar dunyoqarashiga ta'siri \ Axborot asrida yoshlar dunyoqarashi: nazariya va amaliyot mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: O'zDJTU, 2013. –B. 11-12.
5. To'xtayeva M.X. Internetning axboriy ta'sir kuchi va o'ziga xosligi.\ Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2020. –B. 211.
6. Tashmetov T.X. Yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoyalashda axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish texnologiyalari. –Toshkent: O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi. 2021. – B. 13.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 115.

### **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILI O'QITISHNING INTENSIV USULLARINI QO'LLASH**

**Tursunova M.I. - Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Maqola chet tillarini intensiv o'qitishning lingvistik va uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari taqoslangan. Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishning kommunikativ yondashuv usuli haqida batafsil so'z yuritilgan, shuningdek, chet tillarini intensiv o'qitishning psixologik-mantiqiy va uslubiy jihatlari tahlil qilingan. Hozirgi kunda chet tili o'qituvchilari pedagogik faoliyatida o'qitishning multimedia vositalari,

**Mas'ul kotib** – Djurakulova Elmira Suyunovna  
**Muharrir** – Kurbanova Shoira Ismoilovna  
**Sahifalovchi** – Sultonov Alisher Xayrullayevich

**Nashr ko'rsatkichlari:**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tahrir va nashr” bo'limida chop etildi. Adadi: 10 nusxa. Hajmi: 21 b/t. Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$   
Har oyda bir marotaba chop etiladi.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy.  
**e-mail:** [tdpuia@mail.ru](mailto:tdpuia@mail.ru)